



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

## МУНДАРИЖА:

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдуназаровна Бабаназарова</b> Инсон ресурсларидан самарали фойдаланишнинг концептуал йўналишлари	5
<b>Раъно Суннатхоновна Умарова</b> Давлат фуқаролик хизматчиларининг малакасини оширишга бўлган замонавий ёндашувлар	10
<b>ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Berdiyar Yangiboyevich Yangiboyev</b> Sun'iy intellekt texnologiyalaridan milliy iqtisodiyotda foydalanishning ayrim jihatlari	18
<b>Тўлқин Шокирович Эргашев</b> Инновацион тадбиркорлик фаолияти билан кадрлар тайёрлаш менежменти ўртасидаги иқтисодий алоқадорликнинг намоён бўлиш хусусиятлари	21
<b>Munavvar Sur'at qizi Xusniddinova</b> Turizmدا raqamli texnologiyalardan foydalanish: jahon tajribasi va o'zbekiston uchun xulosalar	26
<b>Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов</b> Интеграция вузов и предприятий в инновационном развитии экономики	32
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Рузбой Норматматов, Акрам Джуракулович Гафуров, Ирода Болиева</b> Флавоноидлар ва инсон саломатлиги	36
<b>Botir Khayat Muradov, Olimjon Komiljonovich Muratkulov</b> Problems and solutions to the prospects for the transition of mining enterprises to a green economy on the example of the coal industry	39
<b>Рузбой Норматматов, Акрам Джуракулович Гафуров, Суннат Бозоров</b> Озуқабоп тоғлар ва соғлом овқатланиш	42
<b>ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ</b>	
<b>Shuhrat Marufjonovich Islomov, Avazbek Sa'dullayevich Qarshiyev</b> Mehnat bozorida o'zgarishlarning o'rtacha ish haqiga ta'siri va uning tahlili	45
<b>Maftuna Shavkatovna Xudayarova</b> Aholining tadbirkorlik faolligini baholashning hududiy yondashuvi	50
<b>Murodbek Dushmanov o'g'li Usmonov</b> Qishloq joylarida aholi bandligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llari	57
<b>ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Дилбар Хасановна Асланова, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов</b> Анализ предложения на рынке услуг высшего образования и тенденции его развития	61
<b>Обид Мамаюнусович Пардаев</b> Юқори технологик хизматларнинг назарий масалалари ва уларнинг коммунал хизматлар соҳасида қўлланилиши	64

# ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ

**Berdiyar Yangiboyevich Yangiboyev** – Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti  
professori, i.f.d.

## SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN MILLIY IQTISODIYOTDA FOYDALANISHNING AYRIM JIHLARI

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakat milliy iqtisodiyoti tarmoqlarini barqaror iqtisodiy rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan unumli foydalanish borasida olib borilishi lozim bo'lgan vazifalarning sinergetik mohiyati yuzasidan fikrlar bildirildi.

**Kalit so'zlar:** strategik rivojlanish, milliy strategiya, sun'iy intellekt, sun'iy intellekt texnologiyalari, sinergetik, neyron tarmoqlar, aqlli firmalar, interfeyslar, dasturiy ta'minot, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, robototexnika, tranzaksiyalar.

**Kirish.** Sun'iy intellekt (artificial intelligence) muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan texnologiya hisoblanadi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlashda dunyoning ilg'or mamlakatlarida yaratilgan sun'iy intellekt texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmaslik yohud ularni qo'llashdagi e'tiborsizliklar, pirovard oqibatda mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy va shu kabi boshqa yo'nalishlaridagi rivojlanishni cheklashga sababchi bo'ladi.

Shuning uchun ham XX asrning 80-yillarida “buyuk kashfiyot” deb e'tirof etilgan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida milliy strategiyani yaratish dolzarb masala bo'lib hisoblandi. Bu davr texnologik o'tishni ta'minlaydigan, ishlab chiqarish tamoyillarini tubdan o'zgartiradigan, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa global aloqalarni o'zgartiradigan “4 - sanoat inqilobi” davriga to'g'ri keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 - yil 14 - oktabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 - yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-358-sonli Qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalari yutuqlaridan foydalanishda muhim qadam bo'lib xizmat qilishi, tabiiy hol.

Mazkur qarorda “Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shungdek, “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash”<sup>1</sup>, “sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushurish, shu bilan “sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushurish, shu bilan birga, Raqamli texnologiyalar vazirligi tuzilmasidagi “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi negizida “Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi davlat muassasasini tashkil etish”<sup>2</sup> asosida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalaridagi eng ustuvor vazifalarni bajarishda sun'iy intellektga alohida e'tibor qaratilgan.

Binobarin, 2020-yilning boshiga kelib bu kabi strategiyalarning dunyoning 30 dan ortiq ilg'or mamlakatlarida qabul qilinishi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yuqori samaradorlikka erishishga zamin yaratdi. Maqolaning sun'iy intellekt muammolariga bag'ishlanganligi uning dolzarbligidan dalolat beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Dastavval sun'iy intellekt muammolari bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha AQSh va Xitoy, keyinchalik Rossiya va shu kabi bir qator

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi PQ-358-son qarori, 1-bet.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi PQ-358-son qarori, 1-4-betlar.

davlatlarning kompaniyalari yetakchi o‘rinlarni egallab kelishdi, jumladan, amerikalik Alan Turing sun‘iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqotning birinchi muallifi bo‘lgan<sup>1</sup>. 1956-yilga kelib, sun‘iy intellektga fan sohasi sifatida mustaqil asos solindi<sup>2</sup>. Shu yilning yozida Dartmouth kollejida bo‘lib o‘tgan anjumanda John McCarthy “sun‘iy intellekt” atamasini birinchi marta ishlatgan va mazkur atama muallifi sifatida tarixga kirgan. Keyinchalik Lorenz, Taylor, Griffith, Erin, Isaac, Mikelar sun‘iy intellekt masalalari bo‘yicha o‘z fikrlarini taklif qilishdilar<sup>3</sup>. O‘zbekistonlik olimlardan S.I.Hamrayeva, M.J.Samandarovlar ham bu muammo bilan shug‘ullanganlar<sup>4</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xorijda va mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot, shu jumladan, sun‘iy intellekt sohasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni o‘rganish asosida istiqbolda ularni yanada rivojlantirishning zarurligi bo‘yicha xulosalar qilindi. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘lanishlarga asoslanib tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Sun‘iy intellekt bo‘yicha tadqiqotlar aslida XX asr o‘rtalaridan beri o‘tkazilib kelingan va ma‘lum natijalarga erishilgan, XXI asrning ikkinchi o‘n yilligiga kelib sun‘iy intellekt deyarli barcha sohalarda qo‘llanila boshlandi.

Sun‘iy intellekt haqida so‘z borar ekan, uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini tahlil qilishdan boshlash lozim. Sun‘iy intellektning milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalariga tobora ko‘proq kirib borishi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yanada yuqorilashini ta‘minladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida sun‘iy intellekt kundalik biznes jarayonlariga keng qo‘llanilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoq va sohalariga sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligi oshiriladi, mahsulot yetkazib beruvchilar avtomatik ravishda baholanadi, turli xildagi masalalarning bajarilish jarayoni mukammallashtiriladi, yig‘uv liniyalarini avtomatlashtirish, xatolar sonini kamaytirish va xomashyo yetkazish vaqtini kamaytirishga erishiladi, iqtisodiyotni raqamlashtirish jadallashtiradi, mamlakatimizda axborot va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish rag‘batlantiradi, mahalliy dasturiy ta‘minotning ichki va tashqi bozordagi ulushining oshishiga erishiladi.

Avtomobilsozlikda sun‘iy intellekt avtomobilrobot: avtomobilning o‘zini – o‘zi o‘rgatishi imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanilmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasida sun‘iy intellektdan samarali foydalanish transport vositalari parki marshrutlarini rejalashtirishni mukammallashtiradi, avtopark resurslarini boshqarish va xizmat ko‘rsatuvchi muhandislarni tayyorlash sifatini oshirishadi, shu bilan birga, uchuvchisiz transport vositalaridan foydalanish, transport oqimini bashoratlashni hisobga olgan holda yo‘nalishni optimallashtiradi, xavfli vaziyatlarning oldini olish va nosozliklarni bashorat qilish orqali haydash xavfsizligini ta‘minlash amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligida sun‘iy intellekt yordamida seleksiya jarayonlari va hosildorlik samaradorligini oshirish, asbob-uskunalarning buzilishlarini bashorat qilish hisobiga ta‘mirlash xarajatlarini kamaytirishga erishish mumkin bo‘ladi. "Buyumlar interneti"ning rivojlanishi tufayli qishloq xo‘jaligida sun‘iy intellektning tarqalishi "aqli fermalar" - hayvonlarni ko‘paytirish va avtomatik rejimda saqlash uchun mo‘ljallangan avtonom robot komplekslari, mo‘ljallangan avtonom robot komplekslari, agrobiotsenoz holati haqidagi axborotni tahlil qiluvchi, boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi va ularni robototexnika yordamida amalga oshiruvchi intellektual tizimlar bilan jihozlangan “aqli maydonlar”, avtomatik rejimda o‘simlik mahsulotlarini olish uchun avtonom robotlashtirilgan va tashqi ta’sirlardan ajratilgan komplekslar sifatida "aqli issiqxonalar" yaratish orqali sodir bo‘ladi.

<sup>1</sup> The Essential Turing: the ideas that gave birth to the computer age(en). Oxford, England: Clarendon preness, 2004, ISBN 0-19-825079-7).

<sup>2</sup> Russell & Norvig “Artificial Intelligence: A Modern Approach” (2021, s, 18

<sup>3</sup> Lorenz, Taylor; Griffith, Erin; Isaac, Mike. “We live in Zoom Now”, The New York times (2020-yil 17-mart.

<sup>4</sup> Hamrayeva S.I., Samandarov M.J. Sun‘iy intellekt va uning asosida yaratilgan texnologiyalar tahlili//Academic Research in Educational sciences, 2023.Vol.4)

Elektr energetikada sun'iy intellekt uskunalarning ishonchligini loyihalash va baholashda, energiya resurslariga bo'lgan talabni bashoratlashda, mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirishda, asbob-uskunalarga profilaktik xizmat ko'rsatishni optimallashtirishda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda, yo'qotishlarni kamaytirishda va energiya resurslarini o'g'irlashning oldini olishda qo'llaniladi.

Savdoda sun'iy intellekt allaqachon inson omili ta'sirini kamaytirish, talab va xaridorning hatti-harakatlari modelini bashorat qilish, omborlarni robotlashtirish va xaridorga tovarlarni avtomatlashtirilgan holda y g'g'etkazib berish uchun foydalanilmoqda.

Bank sohasida sun'iy intellektdan foydalanish qarz oluvchilarning kreditga layoqatligini baholash, yangi bank xizmatlarini ko'rsatish, mijozlar so'rovlarini qayta ishlash uchun ovozli tizimlarni yaratish, tranzaksiyalarning xavfsizligini oshirishda unumli foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Tibbiyot sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari diagnostikani yaxshilash, yangi dori-darmonlarni ishlab chiqish, robototexnika yordamida jarrohlik operatsiyalarini bajarish va bemorlarning ma'lumotlariga qarab asboblardan aniq foydalanish tufayli davolanish muddatini qisqartirishi mumkin bo'ladi.

Ta'lim sohasiga sun'iy intellekt elementlarini joriy qilish individual darslarni yaratish, bilimlarni avtomatlashtirilgan holda baholash, o'quvchilarning xatti-harakatlari va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini tahlil qilish hamda robotlardan repetitor sifatida foydalanish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tarmoq va sohalardan tashqari sun'iy intellektdan mudofaa sohasida kiber urushda ishtirok eta oladigan jangovar robotlar va dasturlarni ishlab chiqishda, telekommunikatsiyalar sektorida abonentlarga turli servis xizmatlari taklif qilish ishlarida intensiv ravishda qo'llash mumkinligi jahon tajribasida allaqachonlar o'z isbotini topib ulgurdi.

Maqolada sun'iy intellekt sohasida jahonning ilg'or mamlakatlarida orttirilgan tajribalar, ilmiy manbalarda e'lon qilingan ma'lumotlar, o'rganilgan fikr va izohlar asosida quyidagi **xulosalarni** qilish mumkin:

-har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida sun'iy intellektning o'rni alohida ahamiyatga ega;

-sun'iy intellekt texnologiyalari yetarli darajada rivojlanmagan holatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish sekinlashadi, bu esa uning iqtisodiy-texnologik jihatdan boshqa mamlakatlardan orqada qolishiga olib keladi;

-har bir mamlakat uchun sun'iy intellektni rivojlantirish yuzasidan milliy strategiyani yaratish talab etiladi;

-sun'iy intellekt “kashfiyot” deya e'tirof etila boshlagan davrlarda darsliklar chiqarila boshlandi, neyron tarmoqlari asosida 6-avlod kompyuter loyihasi ishlab chiqildi;

-yangi asrga kelib sun'iy intellektga e'tibor yanada kuchaydi, uning natijasida yangi texnologiyalar soni oshib, sun'iy intellekt vositalari mukammallashib bordi va mijozlar tomonidan ishlatila boshlandi;

-mamlakatimizda sun'iy intellektdan unumli foydalanish borasida Prezidentimiz va hukumatimizning bir qator qarorlari qabul qilinib, ularda 2030 yilga borib milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohalarda sun'iy intellektning tez sur'atlar bilan rivojlanishi yuzasidan chora-tadbirlar va ustuvor vazifalar belgilab berildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi PQ-358-son qarori, 1-30-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi PQ-358-son qarori, 1-4-betlar.

3. The Essential Turing: the ideas that gave birth to the computer age(en). Oxford, England: Clarendon press, 2004, ISBN 0-19-825079-7).
4. Russell & Norvig “Artificial Intelligence: A Modern Approach” (2021, s, 18
5. Lorenz, Taylor; Griffith, Erin; Isaac, Mike. “We live in Zoom Now”, The New York times (2020-yil 17-mart.
6. Hamrayeva S.I., Samandarov M.J. Sun’iy intellekt va uning asosida yaratilgan texnologiyalar tahlili//Academic Research in Educational sciences, 2023.Vol.4)

<b>Б.Янгибоев</b>	<b>B.Yangiboev</b>
<b>Некоторые аспекты использования технологий искусственного интеллекта в национальной экономике</b>	<b>Some aspects of the use of artificial intelligence technologies in the national economy</b>
<p><b>Аннотация.</b> В статье представлены взгляды на синергетический характер задач, которые необходимо решить при эффективном использовании технологий искусственного интеллекта в целях устойчивого экономического развития отраслей национальной экономики страны.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> стратегическое развитие, национальная стратегия, искусственный интеллект, технологии искусственного интеллекта, синергетический эффект, нейронные сети, умные компании, интерфейсы, программное обеспечение, автоматизация, цифровизация, робототехника, транзакции.</p>	<p><b>Abstract.</b> The article presents views on the synergetic nature of the tasks that need to be solved with the effective use of artificial intelligence technologies for the sustainable economic development of the country's national economy.</p> <p><b>Keywords:</b> strategic development, national strategy, artificial intelligence, artificial intelligence technologies, synergetic effect, neural networks, smart companies, interfaces, software, automation, digitalization, robotics, transactions.</p>

Тўлқин Шокирович Эргашев – БухДУ Иқтисодиёт кафедраси доценти и.ф.ф.д (PhD)

### ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ БИЛАН КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МЕНЕЖМЕНТИ ЎРТАСИДАГИ ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАДОРЛИКНИНГ НАМОЁН БЎЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Аннотация.** Мақолада кадрлар тайёрлаш менежменти билан инновацион тадбиркорлик фаолияти ўртасидаги иқтисодий алоқадорликларнинг намоён бўлиш хусусиятлари таҳлил қилинган. Жумладан, турли иқтисодий назариялар асосида инновацион тадбиркорлик фаолиятини кадрлар тайёрлаш менежменти орқали қўллаб-қувватлашнинг устуворликлари аниқланган.

**Калит сўзлар:** менежмент, кадрлар тайёрлаш, кадрлар тайёрлаш менежменти, касбий компетентлик, олий таълим хизматлари, меҳнат бозори, таълим тизими, инновация, инновацион фаолият, тадбиркорлик, инновацион таадбиркорлик.

**Кириш.** Жаҳон хўжалигида глобализацион жараёнларнинг тобора чуқурлашиб бориши натижасида турли тармоқ корхоналари ўртасида ўзаро рақобатлашув кучайиб, нафақат бир тармоқ, балки тармоқлараро даражада юқори иқтисодий самарадорликка эришиш борасидаги курашларнинг кескинлашувига олиб келмоқда. Ушбу жараёнлар пировард натижада тадбиркорлик фаолияти юритувчи субъектлар амалиётида инновациялардан фойдаланиш жараёнларини жадаллаштириб, меҳнат бозорида корхонанинг инновацион ривожланиш салоҳиятидан самарали фойдаланиш имконини берувчи кадрларга бўлган талабнинг ортиши оқибатида турли мамлакатларнинг миллий кадрлар тайёрлаш тизимларини бошқариш амалиётига ўз таъсирини ўтказди. Натижада мамлакатлар кадрлар тайёрлаш тизимлари, жумладан, олий таълим муассасалари бошқарувида инновацион тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган механизмлар жорий этила бошланди.

Инновацион тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган кадрлар тайёрлаш менежменти амал қилишининг илмий назарий жиҳатдан тадқиқ этишда дастлаб инновацион тадбиркорликнинг моҳияти, унинг амал қилиш хусусиятларини тўлиқ

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84  $\frac{1}{8}$ . “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.